

**YOSHLARDA MAFKURAVIY JARAYONLARNI AGLASH VA TAHLIL  
QILISHNI SHAKLLANTIRISHNING TAKOMILLASHTIRISH  
YO'LLARI MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

**Ismoilov Adxam Bahodirovich**

Jizzax viloyat yurdik texnikumi o'qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yoshlarda mafkuraviy jarayonlarni aglash va tahlil qilishni shakllantirishning takomillashtirish yo'llari mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida taylorlangan.

**Kalit so'zlar:** anglash, tahlil, pedagogika, texnalogiya, taraqqiyot.

**Аннотация:** Данная статья подготовлена об использовании современных педагогических технологий в обучении на тему путей совершенствования формирования понимания и анализа мировоззренческих процессов у молодежи.

**Ключевые слова:** понимание, анализ, педагогика, технология, развитие.

**Abstract:** This article is prepared about the use of modern pedagogical technologies in teaching the topic of ways to improve the formation of understanding and analysis of ideological processes in young people.

**Key words:** understanding, analysis, pedagogy, technology, development.

Hozirgi zamon ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlariga, balki madaniyat sohasiga, ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan keyingi o'n yilliklarda pelagog olimlar diqqatini jalb qilgan dolzarb muammolardan bir pedagogik texnologiya hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar texnologiyalashtirishni obyektiv jarayon deb, yangicha sifatiy muammolarni

yechish uchun ta'limni evolyusion bosqichga ko'tarish shartlaridan biri ekanligini e'tirof etmoqdalar. Ta'lim sohasiga bunday yondashish Yunesko tomonidan ham ma'qullandi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach Brinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan ta'limning milliy modeli yaratildi va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari har jihatdan ilmiy asoslab berildi. Uning ikkinchi va uchinchi bosqichda "O'quv tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash jiddiy vazifalardan biri ekanligi ko'rsatildi.

Xo'sh pedagogik texnologiya nima: - Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

Metodikaning maqsadi o'tilayotgan fanning mazmun-mohiyatini yoritish va fanning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunda o'quv fani o'quvchilarning barcha talab va ehtiyojlarini qondirishi lozim.

O'qituvchi dars mobaynida o'quvchiga iloji boricha o'rganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga haraqat qilishi kerak. O'qituvchi:

- 1)Axborotlarni to'plash;
- 2)Axborotlarni tanlash va qayta ishlash;
- 3)O'rganilgan axborotlarni qo'llash kabi bilimning uchta bosqichidan iborat bo'lgan modeliga rioya qilgan holda dars o'tsa, dars o'qituvchi kutganidek yaxshi samara berishi mumkin. O'qituvchi keyingi navbatda o'quvchi bilish faoliyatining faollashuv jarayoniga o'tishi kerak. Shundagina bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi. O'quvchi bilish faoliyatining faollashuvi qator prinsiplarga tayanadi. Bular fanni o'rganishga qiziqtirish, tayanch iboralariga asoslanish, muammosi metodlarni qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, ta'lim mazmuni turmush bilan bog'lash, fanlararo aloqadorlikni o'rganish va hokazolar.

Bugungi kunda respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar bilan birga hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz

darajasini jahon andozalariga yetkazish uchun muhim ishlar qilinmoqda. “Ta’lim to’g’risidagi qonun” va “Qadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi ta’lim-tarbiyani rivojlantirishda yangi bosqichning boshlanishidir.

Har bir kasb kishining o’ziga hos ishi usuli va yo’nalishi bo’ladi. Darsda mavzuni o’quvchilarga yetkazishning turli hil usullaridan keng foydalanish mumkin. Pedagogik amaliyot o’tgan davrimda men shu narsaning guvohi bo’ldimki, bugungi kunda o’quvchilarni dars mobaynida erkin ishlashiga, erkin fikrlashga yo’naltirish faqatgina mavzuning tushunarli bo’lishini ta’minlab qolmasdan, balki o’quvchilarda yangi dunyoqarashning shakllanishida ham asosiy o’rinni egallaydi. Men amaliyot o’tagan davr mobaynida dars o’tishning, mavzuni o’qitishning bir qancha yangi uslublarini o’rgandim, hamda mana shu uslublardan foydalangan holda o’quvchilarga dars o’tdim. Mana shunday o’qitishning faol uslublaridan biri bu “Munozara” uslubidir.

Eng qulay usullardan biri deb topilgan “Munozara” usuli o’quvchining mavzu doirasidagi bilimlarini puxtalashtirib qolmay, balki o’quvchilarning chuqr bilim va qo’shimcha ma’lumotlarga ega bo’lishlarini taqozo etadi. Munozra usul o’quvchilarni bir mavzu ustida fikr yuritishga, mavzuning yaxshi ochib berilmagan tomonlarini yoritishga, bilimlarni mustahkamlashga imkon beruvchi usuldir. Bu usul avvalo o’qituvchi bilan o’quvchilar orasidagi munosabatning yaxshi yo’lga qo’yilishini ta’minlaydi, o’quvchilarning mavzu bilan bog’liq tushunchalarini aytalishlari, mustaqil fikr yuritishlariga yordam beradi.

**Maqsad:** O’quvchilarning asosiy e’tiborini mavzuni to’g’ri ma’lumotlar asosida yoritib berishga o’rgatish.

O’qituvchi darsni kirish so’zi bilan ochib, munozara uchun o’quvchilar o’rtasiga quyidagi savollarni tashlaydi:

Munozara davomida o’quvchilar har bir savolga o’z javoblarini aytadilar, aytgan fikrlarini hayoti voqiya bilan isbotlaydilar. Munozara so’ngida o’qituvchi to’g’ri va aniq fikrni kim aytganligini aytadi yoki to’g’ri va aniq fikrni o’zi aytadi. So’ng natijalar hisobga olinib, e’lon qilinadi, faol o’quvchilar baholanadi.

O'qituvchi munozara davomida o'quvchilarn baholamasligi kerak, chunki qo'yilgan baho o'quvchini chalg'itib, munozaraning to'xtab qolishiga yoki sustlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar ichida O'zbekiston tarixini va huquqiy bilimlarni o'rganish markaziy o'rinnilardan birini egallaydi. Zero o'tmishini bilmasdan, o'rganmasdan va huquqiy ong shakilanmasdan turib kelajakni yaratib bo'lmaydi.

Bugungi kun pedagoglarining oldiga qo'yilgan asosiy va sharafli vazifa – o'quvchilarning milliy ongi, siyosiy, nazariy-ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, o'tmish va hozirgi zamondagi voqyea-xodisalarga ilmiy xolislik va tarixiylik tamoyillariga amal qilgan holda munosabat bildirishga qodir umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashgan erkin fikrlaydigan, mamlakatimizning yuksak parvoziga zo'r qanot bo'luvchi komil insonni tarbiyalashdan iboratdir.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash davr talabi. 5-jild. – T., «O'zbekiston», 1997.
- 2.Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild., - T., «O'zbekiston», 1994.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston», 1997.
- 4.Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998.
- 5.Karimov I.A Barkamol avlod – o'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 6-jild. – T., «O'zbekiston», 1997.